



DINIY TASHKILOTLAR VA BIRLASHMALAR FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

G'ofirova Farangiz G'ulom qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

e-mail:fgofirova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6529408>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

diniy birlashma, diniy tashkilot, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik

ANNOTATSIYA

Turli jamiyatlarda dinning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini qayta-qayta ko'rib chiqish, uning davlat hayotiga aloqasi va ta'sirini baholagan holatda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi har qanday davrda dolzarb. Diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatining huquqiy asoslari mamlakatimiz qonunchiligini rivojlantirishda ham o'z ifodasini topgan. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, mamlakatimizda din davlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar.

Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi». Bu g'oya yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi. Respublikamizda din va davlat munosabati, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyat yuritishi bo'yicha huquqiy asosan yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy

tashkilotlar to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda «O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi 1998 yil 20 iyundagi 263-son, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 2004 yil 23 apreldagi 196-son, «Diniy ta'lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2004 yil 1 martdagi 99-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun hujjatlar bilan tartibga solinadi. Aytish joizki, mamlakatimizda din sohasida olib



borilayotgan siyosat davlatning dunyoviy xususiyati va uning bag'rikengligi tamoyillariga asoslanadi. Barcha dinlarga nisbatan bag'rikeng munosabat, davlatning din bilan sog'lom va konstruktiv hamkorligi shular jumlasidandir. Buning natijasida mamlakatimizda ko'pkonfessiyali jamiyat rivojlanmoqda, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolar tinchlik va totuvlikda istiqomat qilmoqdalar. Ayniqsa so'nggi yillarda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar diniy ta'limda ham tub o'zgarishlar yasadi, natijada tizimni takomillashtirishga oid ko'plab masalalar yechim topmoqda. Shu jihatdan yangi qonunda ham diniy ta'limning professional maqomi rasman e'tirof etildi, O'zbekiston fuqarolarining, dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar, dunyoviy ta'lim olish huquqi ta'minlanishi qayd etildi.

Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi har qanday davr uchun dolzarbdir. Uning nazariy jihatlarini tahlil etish orqali amaliy muammolarga yechim izlash esa bu sohaning takomillashuviga olib keladi.

Mavzumizning o'rganilganlik daraja sining nazariy asosini quyidagi bir qator olimlarning diniy tashkilotlar faoliyatini tahlil etishga yo'naltirilgan asarlari tashkil etadi: A.M. Gulyayeva, P. Gidulyanova, E.V. Vaskovskiy, V.B. Elyashevich, K.P. Pobedonostsev, I.A. Pokrovskiy, V.I. Sinayskiy, N.S. Suvorov, G.F. Shershenevich; huquqning umumiy nazariyasiga oid olimlarning ishlari: S.S. Alekseyeva, V.M. Gorsheneva, D.L. Zlatopolskiy, B.M. Lazareva, G.V. Maltseva, G.N. Manova, A.B. Mickevicz, C.B. Polenina, P.O. Xalfina, L. S.Yavich va boshqalar.

Shuningdek, diniy tashkilotlar va jamoat birlashmalarining huquqiy holatini o'

rgangan huquqshunoslarning bir qator tadqiqotlaridan ham foydalanildi, jumladan, Y. L. Lvovich, G.A. Kudryavtseva, A.I. Shchiglik a, S.S. Yureva, T.A. Yampolskaya kabilar. Shuningdek T.A. Antonenko, V.I. Ivanova, G.L. Kastorskiy, E.V. Kastorskaya, V.V. Klochkov alarning asarlarida ham diniy birlashmalar faoliyatining huquqiy masalalari izchil tahlil etiladi.

Diniy faoliyat konseptsiyasini aniqlash uchun quyidagi xorijiy olimlarning asarlari ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi: K. Bart, G. Gefding, V. Jeyms, V. Solovyov, E. Fromm, Z. Freyd; diniy ulamolar: V.I. Garadji, D.E. Manuilova, J.K. Mitroxina, M.P. Mchedlov, D.V. Pivovarova, A.D. Suxova, Yu.V. Tixonravova, D.M. Ugrinovich, M.O. Shaxova, I.K. Yablokov va boshqalar.

O'zbekiston tarixi davomida yuz bergan turli siyosiy jarayonlarda, xususan, mamlakatimiz hududida Zardusht tomonidan asos solingan Zardushtiylikdan boshlab, arablar istilosi davrida kirib kelgan Islom dini va yoki Ruslar istilosi davrida kirib kelgan xristianlik dini davrida ham har doim ushbu munosabatlarga davlat befarq bo'lmagan. Hozirgi kunda ham, aholi orasida turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning mavjudligi va oqibatda yuzaga keluvchi turli ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solishni talab etadi.

Mavzumizning maqsadi mamlakatimizda diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatini huquqiy tartibga solish masalasiga doir mexanizmlar joriy etishning nazariy-amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qilish, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida diniy birlashmalar faoliyatini tartibga solish mohiyati, mazmunini ochish va ushbu tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, jamiyat, xalq va inson



manfaatlarini ta'minlash yo'lida bu sohadagi qonunchilikning roli va ta'sirini kuchaytirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Diniy birlashmalar tushunchasi, tashkiliy-huquqiy shakllari, turlari va belgilarini tahlil etish;
- Diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatining huquqiy maqomini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilot va birlashmalar faoliyatini tartibga soluvchi normalar tahlilini amalga oshirish;
- Diniy birlashmalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga solish yuzasidan xalqaro davlatlar tajribasini tahlil etgan holatda o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish asosida ijobiy huquqiy tajribani mamlakatimizga tatbiq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasida diniy birlashmalar faoliyatini tartibga solish masalasida muammolarni o'rganish va ularga yechim izlash;
- Diniy birlashmalar faoliyatiga doir qonunchilikni takomillashtirish istiqbollarini ko'rib chiqish va tizimning qonunchilik asoslarini ishlab chiqish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatini huquqiy tartibga solish masalasi bilan bog'liq munosabatlarni o'rganish orqali quyidagi bir qator gipotezalarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan, Dunyoning turli mamlakatlarida diniy birlashmalarining maqomini huquqiy tartibga solishning

yagona standarti yoki modeli mavjud emas, chunki u milliy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy tajriba va an'analarni hisobga olgan holda qurilgan. Hozirgi vaqtda diniy birlashmalarining maqomini huquqiy tartibga solishning xilma-xil usullarini aks ettiradigan aniq atamashunoslik mavjud emas, shuning uchun konfessiyaviy mansublikning ma'lum bir huquqni ta'minlashga ta'siri munosabatiga asoslangan ta'rifi taklif etiladi. Ya'ni, ushbu ishda diniy tashkilot va birlashmalarining huquqiy maqomi vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishning bir shakli sifatida bayon etiladi.

Ikkinchidan, Diniy birlashma fuqarolarning jamoat birlashmalariga birlashish huquqi bilan vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishning jamoaviy shakli sifatida ko'rib chiqiladi va ijtimoiy munosabat turi sifatida tahlil etiladi. Diniy birlashmalarining tegishli huquqiy maqomi vijdon erkinligi huquqini eng maqbul tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Dunyoviy davlatda bu huquqlarning amalga oshirilishi muhimligi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt", "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konventsiyasi kabi xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan.

Uchinchidan, ushbu maqolada diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini tartibga solishga doir bir qator muammolar tahlil etilib, ularga potentsial yechimlar beriladi. Ishda bayon etilgan xulosalar va takliflar O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to'g'risida"gi qonunini takomillashtirishda nazariy asos sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, adliya organlari, soliq organlari, diniy birlashmalarining rahbarlari va xodimlari



tomonidan ushbu qonun qoidalarini kundalik faoliyatida qo'llash bo'yicha ilmiy va amaliy qo'llanma sifatida o'rganishlari mumkin. Ilmiy maqolaning materiali Konstitutsiyaviy huquq kursi bo'yicha uslubiy va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, uning davlat-konfessiyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga taalluqli bo'lgan qismi xizmat qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, O'zbekistonda barcha shaxslarning vijdon va e'tiqod erkinligi huquqini ta'minlashga xizmat qiluvchi diniy tashkilotlarning hech bir to'siqlarsiz, qonunda belgilangan tartib va asoslarda faoliyat olib

borishlari uchun tegishli huquqiy asos va ta'shkiliy shakllar ta'minlangan. Bu holat davlatimizning dunyoviy demokratik davlat sifatida rivojlanayotgani hamda diniy bag'rikenglik tamoyillariga sodiq ekanini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlarida diniy tashkilotlarning muhim o'rni bor. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarda subyekti sifatida bir tomondan e'tiqod qiluvchilar, ya'ni fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat va uchinchi tomondan diniy tashkilotlar qatnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" 2021.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son. <https://lex.uz/docs/-5491534>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning qarori, 30.10.2021 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3071-2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 10/21/3071-2/1003-son.
4. Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.04.2022 yildagi 180-sonh hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2022-y., 09/22/180/0307-son
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966 yil 16 dekabr // Amaldagi xalqaro huquq. M., 1996. T. 2. S. 21-39.